



<https://doi.org/10.70728/b.series.v08.i04.065>

ALISHER NAVOIYNING “MAHBUB UL-QULUB” ASARIDAGI PRETSEDENT NOMLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI

Mirzayeva Kamola Ne‘matillo qizi
Qarshi shahri 23-o‘rta maktabning
ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
E-mail: Kamola-mirzayeva@mail.ru

Anotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida keltirilgan pretsedent nomlar lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinib, ularning til va madaniyat bilan bog‘liq tomonlari misollar orqali ochib berilgan. Asardagi antroponimlar Qur‘oni Karimda uchraydigan shaxs nomlari, diniy ulamolar nomlari, afsonaviy shaxslar nomlari, shoir va yozuvchilar nomlari, hukmdorlar nomlari, badiiy to‘qima nomlar kabi bir qancha mavzuviy guruhlarga ajratilib, ularning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: pretsedent nom, shaxs nomlari, tarixiy shaxslar, ramz, o‘xshatish, afsonaviy obrazlar, til va madaniyat, qadriyat.

Аннотация: В данной статье *прецедентная единица*, представленные в произведении Алишера Навои «*Махбуб ул-кулуб*», анализируются с лингвокультурологической точки зрения, а их связь с языком и культурой раскрывается на конкретных примерах. Антропонимы, зафиксированные в тексте, классифицируются по ряду тематических групп, включая имена лиц, упоминаемых в Священном Коране, имена религиозных ученых, мифологических и легендарных персонажей, поэтов и писателей, правителей, а также вымышленных художественных образов. В статье освещаются специфические особенности каждой из выделенных групп и показана их роль как носителей культурных, исторических и духовных ценностей в структуре художественного произведения.

Ключевые слова: антропоним, имена собственные, исторические личности, символ, сравнение, легендарные образы, язык и культура, ценности.

Annotation: This article presents a linguocultural analysis of the precedent unit used in Alisher Navoi’s work *Mahbub ul-qulub*, revealing their close relationship with language and

culture through illustrative examples. The anthroponyms found in the text are classified into several thematic groups, including personal names mentioned in the Holy Qur‘an, names of religious scholars, legendary figures, poets and writers, rulers, as well as fictional characters. The study highlights the distinctive features of each group and demonstrates how these anthroponyms function as carriers of cultural, historical, and spiritual values within the literary work.

Keywords: anthroponym, personal names, historical figures, symbol, simile, legendary characters, language and culture, values.

KIRISH VA DOLZARBLIGI.

Har bir xalqning ajdodlar va avlodlar o‘rtasida ibrat namusasi sanalgan tarixiy-afsonaviy qahramonlari mavjud bo‘ladi. Ular o‘sha xalqning madaniy qiyofasini ko‘rsatuvchi birliklardan biri hisoblanadi. Bu qahramonlarni ikki turga bo‘lib tahlil qilishimiz mumkin ya‘ni tarixda mavjud bo‘lgan va xalqning tahsiniga sazovor bo‘lgan shaxslar va biror bir asarda adib tomonidan yaratilgan qahramon. U hayotda mavjud bo‘lmaydi. U adibning badiiy tasavvuri asosida yaratilgan bo‘ladi. Bu qahramon xalqning qalbidan joy olgan bo‘ladi. Masalan: bu obrazga Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni qahramoni Farhodni misol sifatida keltirish mumkin. Farhod obrazi hayotda mavjud emas, ammo Farhod deganda insonlar ongida dostonida gavdalangan obraz paydo bo‘ladi. Bu keltirilgan misollar tilshunoslikda pretsedent nom deya ataladi. Hozirgi tilshunoslikda, ayniqsa lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishida, til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, pretsedent nomlar va stereotiplarni tadqiq qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ko‘pincha pretsedent nomlar va stereotiplar bir-biriga o‘xshash tushuncha sifatida qaraladi. Aslida esa ular orasida farq bor: stereotiplar umumiy tasavvurlarni bildirsa, pretsedent nomlar aniq bir shaxs yoki obraz bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu farqni aniqlash ilmiy jihatdan muhimdir.

METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI.

Til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular orqali insonning dunyoni qanday tushunishi va his qilishi namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, lingvomadaniyatshunoslikda til birliklari ortida yotgan ma‘nolar, obrazlar va stereotiplar muhim o‘rin tutadi. Shu jihatdan pretsedent nomlar alohida e‘tiborga loyiq bo‘lgan hodisalardan biridir. Tilshunoslikda Pretsedent termini birinchi marta Yu.N. Karaulov tomonidan rus tilida birinchi marta e‘lon qilingan “Роль прецедентных текстов в структуре и функционировании языковой личности” [7. 351] nomli maqolada qo‘llanilgan. Rus tilshunosligida muayyan til egalariga yaxshi tanish bo‘lgan va ularning lisoniy xotirasida saqlanadigan, nutqiy faoliyatda qayta-qayta murojaat qilinadigan shaxs nomlari barqaror so‘z birikmalari jumlar hamda matnlar

president birliklar sifatida qayd etiladi. V. A Maslovaning fikriga ko‘ra muayyan millat vakillariga yaxshi tanish bo‘lgan matnlar yoki voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxs nomlari pretsedent nomlar bo‘la oladi. Masalan: Oblomov, Taras, Bulba kabi. Predsedent hodisalar haqidagi nazariya asoschilaridan biri Gudkov D.B esa tilni o‘zlashtirishning milliy-madaniy va qomusiy darajasi bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim voqea, fakt, nom, matnlarni pretsedent hodisalar sifatida baholab ularning lingvomadaniy hamjamiyatning aksar vakillariga tanish bo‘lishini, ularning xotirasida saqlanib turishini takidlaydi hamda bunday birliklarning nutqda aktuallashgan ko‘rinishlarini pretsedent birliklar deb hisoblaydi. [8, 341] Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” (Ko‘ngillarning sevgani) asari shoirning uzoq yillik tajribalari, kuzatishlari asosida yaratilgan bo‘lib, unda ko‘plab tarixiy va badiiy obrazlar: hukmdorlar, shoirlar, avliyolar, shuningdek, Qur‘oni Karimda nomi zikr etilgan payg‘ambarlar va boshqa ayrim shaxs nomlari esga olingan. Bu esa o‘z o‘rnida “Mahbub ul-qulub” asarining badiiy qiymatini yanada oshirib, shoirning didaktik maqsadlarini aniqroq namoyon qilishga yordam bergan.

TADQIQOT NATIJALARI.

“Mahbub ul-qulub” asaridagi predsedent nomlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- 1) Qur‘oni Karimda uchraydigan shaxs nomlari;
- 2) diniy ulamolar nomlari;
- 3) afsonaviy shaxslar nomlari;
- 4) shoir va yozuvchilar nomlari;
- 5) hukmdorlar nomlari;
- 6) badiiy to‘qima nomlar.

Sharq mumtoz adabiyotida diniy motivlar, xususan, Qur‘on oyatlari, payg‘ambarlarning nomlarini keltirish urf bo‘lgan. Bu an‘anani Alisher Navoiy ham davom ettirgan holda o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida o‘z badiiy maqsadlari yo‘lida Qur‘oni Karimda uchraydigan payg‘ambarlar nomidan unumli foydalangan. Asarda Muhammad (s.a.v), Iso alayhissalom. Yaqub alayhissalom, Xizr alayhissalom va Muso alayhissalom kabi payg‘ambarlar tilga olingan.

Asarning birinchi bob, o‘n beshinchi fasli tabiblar zikrida bo‘lib, unda tabiblar Iso payg‘ambarga qiyoslangan, shuningdek, ularning yuzi najot keltiruvchi Xizrga o‘xshatilgan: *“Hozir tabibki shafqati bo‘lg‘ay – Inson Ruhullohg‘a nisbati bo‘lg‘ay. Iso ishi chiqqon jonni tang‘a kivurmak duo bila, munung tandin chiqadurg‘on jong‘a mone’ bo‘lmoq davo bila. Mundoq tabibning yuzi mariz ko‘ngliga mahbubdur va so‘zi bemor jonig‘a marg‘ubdur. Dami alillarg‘a davo va qadami xastalarg‘a shifo. Xizri najot aning tal‘ati va obi hayot aning*

sharbatii” [1, 22]. Ya’ni Iso alayhissalom chiqmoqchi bo’lgan jonni duo bilan tanaga kirgizsa, tabiblar esa chiqmoqchi bo’lgan jonni davo bilan tanada qoldiradi.

Shoir sabr haqidagi faslda bu tushunchani chuqur tahlil qilib, sabrning inson kamolotidagi ahamiyatini payg’ambarlar hayoti misolida tushuntirib bergan: “Ruh ishi ani tortarda taallul, ko’ngul aning qattig’lig’idin betoqatu tahammul. Yo’li bodiyasida zulumoti ofat, Hizrdek ani qat’ qilg’ong’a bahra zuloli hayot. Shiddati yukiga homillardin biri Ayyubi nabi va suubati hamlig’a komillardin biri Muhammadi arabii”. Ya’ni, ruh sabr tufayli illatli, kungil uning qattiqligidan toqatsiz, behalovat. Yo’li sahosida zulmat va ofat, Xizrdek uni bosib o’tganga oxiri obi hayot chashmasi nasib etadi. Sabr shiddatini totib ko’rganlardan biri hazrat Ayub alayhissalomdirlar va qiyinchiliklarga bardosh berganlardan biri Muhammad alayhissalomdirlar.

Payg’ambarlar nomidan badiiy maqsadlarda foydalanish hozirgi davr yozuvchilarining badiiy ijod namunalarida ham davom etib kelyapti. Xususan, Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasida Xizr obrazi keltirilgan [2, 224]. Yozuvchi xalq orasida “Xizrning bosh barmog’i suyaksiz bo’ladi, uning qo’lidan ushlab, nima tilak tilansa, har qanday tilak amalga oshadi” degan tushunchadan unumli foydalanib, Amir Temurni Xizr bilan “uchrashtiradi”. Amir Temur undan Ahmad Yassaviy bilan uchrashtirishini so’raydi va o’z niyatiga yetadi.

“Mahbub ul-qulub” asari muallifning axloqiy-falsafiy qarashlarini ifodalovchi nasriy asar bo’lib, unda real hayot hodisalari bilan bir qatorda afsonaviy va ramziy qahramonlar ham uchraydi. Afsonaviy obrazlar zamonlar osha o’sha xalqning orzusidagi tinchlik qahramonlarini, odil podshohlarni yoki xalq nafratiga sabab bo’lgan, xalqni qo’rquvga solgan ramziy obrazlarni gavdalantirib keladi. Afsonaviy obrazlar azaldan insonlarni o’ziga bo’lgan ishonch, farog’atli hayotga bo’lgan umid ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo’lib xizmat qilgan. Bunday qahramonlar asarning ta’sirchanligini oshirish, o’quvchini fikrlashga undash hamda pand-nasihatlarini obrazli tarzda yetkazish vazifasini bajarib kelgan.

“Mahbub ul-qulub” asarida ham bir qancha afsonaviy qahramonlar nomlarini uchratish mumkin. Afsonaviy qahramonlar bevosita voqealar markazida turmasa-da, ular ibratli namuna, ramziy obraz yoki qiyoslash vositasi sifatida keltirilgan. Rustam, Jamshid, Hotami Toy kabi obrazlar shular jumlasidandir.

Jamshid badiiy obraz sifatida dastlab Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” dostonida tilga olingan [3, 736]. Firdavsiy uni xalq og’zaki ijodi va “Avesto”da keltirilgan ma’lumotlar asosida qayta ishlab, uni original obrazga aylantiradi. Shundan so’ng Jamshid Firdavsiy “Shohnoma”sidan keyin yaratilgan asarlar uchun an’anaviy obraz, u haqdagi voqealar esa an’anaviy syujetga aylanadi.

Navoiy mayxo’rlar haqida fikr bildirib, ular har bir may quyuvchidan qadah, olganda o’zini Jamshiddan ham shavkatli va baxtlirok sezadi, deya kinoya qiladi. Bu o’rinda Navoiy

Jamshid podshoning nihoyatda qudratli shaxs bo‘lgani va quyilgan may hech qachon tugamaydigan sehrli jom (qadah) yasatganiga ishora qilgan.

Asarning “fosiq va badfe’l, bahodirlik lofini urganlar” haqidagi faslida adib minnatchi, lofchi va qo‘rqoq zodagonlarni kinoya bilan Hotami Toy va Rustamga qiyoslaydi.

Ma’lumki, Hotami Toy mumtoz badiiy manbalar va xalq orasida saxiylik ramzi sifatida ma’lum va mashxur, Rustam esa ko’hna sharq adabiyotida mard, qo‘rqmas, kuchli afsonaviy obraz sifatida tanilgan. Navoiy o‘z davrining mansabparast, baxil kimsalarni Hotami toyga, qo‘rqoq kimsalarni Rustamga qiyoslab, ularning ustidan kuladi: “*Bazmda da’volari Hotamlig, razmda taloshlari Rustamlig*” [1, 15], ya’ni Bazmda hotamlilik da’vosini qilishadi, jang-u jadalda o‘zlarini Rustamdek ko‘rsatadilar.

Rustam obraziga zamonamiz adiblarining asarlarida ham murojaat qilinganini kuzatish mumkin. Jumladan, Hamid Olimjonning “Oygul bilan Baxtiyor” ertak-dostonida Baxtiyor Rustamga o‘xshatilgan:

“Go‘zal yurt Susambilda

Bir podachi bor edi,

Qilichday o‘tkir edi,

Rustam kabi zo‘r edi” [4, 20].

“Mahbub ul-qulub”da sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyandalari haqida ham fikr bildirilib, Navoiy ularni o‘zining ustoz va murabbiylari sifatida e’tirof etib, go‘zal tashbehlar vositasida madh etgan. Bu jihat asarning badiiy-estetik qiymatini yanada oshirishga xizmat qilgan. Navoiy bunday ijodkorlarni jamiyat ma’naviy taraqqiyotining muhim tayanchi deb biladi.

Asarning “Nazm gulistonining xushovoz qushlari zikrida” deb atalgan faslida Navoiy o‘zigacha ijod etgan va o‘z zamonasining ulug‘ allomalarini turli guruhlariga ajratgan holda ta’riflab o‘tadi. Xususan, Shayx Fariduddin Attorni “forsiy tilda nazmlar javohirini tuzuvchi”, deya ta’riflagan bo‘lsa, “Masnaviyi ma’naviy” asari muallifi Mavlono Jaloliddin Rumiyni “yaqinlik dengizining g‘avvosi” deya tavsif qiladi. Shuningdek, Muslixuddin Sa’diy Sheroziyni “ma’nolar ahlining nozik yo‘l bilan pardozlovchisi”, Amir Xusrav Dehlaviyni “ishq ahli guruhining sadoqatli yo‘lovchisi”, Shayx Zahiruddin Sanoiyni “tasavvuf mushkilotlarini yechuvchi” deya e’tirof etgan.

Ayrim o‘rinlarda soxta shoirlar, maqtanchoq yoki manfaatparast ijodkorlarni keskin tanqid qiladi. Bu yerda muallif aniq nomlarni tilga olmasdan, umumlashtirilgan obraz orqali salbiy tiplarni ko‘rsatadi.

Qudratli hukmdorlar barcha davrlar uchun muhim o‘xshatish va qiyos namunasi bo‘lib kelgan. Navoiy “Mahbub ul-qulub”da mamlakat hukmdori va o‘zining eng yaqin do‘stlaridan biri bo‘lgan Husayn Boyqaroni alohida tavsiflab o‘tgan:

*Ulus podshohi-yu darveshvash,
Anga shohlikdin kelib faqir xash.
Jahon mulki ollinda xoshokcha,
Vale bir ko‘ngul mulki aflokcha.*

Ya‘ni u o‘z elining shohi bo‘lsa-da, lekin darveshga o‘xshaydi, unga shohlikdan ko‘ra faqirlik xush yoqadi. Dunyo boyligini xas-xashakcha ham ko‘rmaydi, lekin inson ko‘nglini osmon qadar deb biladi. Bu yerda Navoiy hukmdorning haqqoniy sifatlarini keltirishdan ko‘ra ko‘proq o‘zining hukmdorga nisbatan orzu-umidlari, istaklarini aks ettirgani sezilib turadi.

“Mahbub ul-qulub” asarida badiiy to‘qima nomlar ham keltirilgan. Badiiy to‘qima nom – muallif tomonidan asar ehtiyojidan kelib chiqib yaratilgan yoki an‘anaviy nomlarga yangi semantik yuklama berish orqali shakllantirilgan atoqli ot bo‘lib, u muayyan badiiy-estetik, ma‘naviy yoki ramziy maqsadga xizmat qiladi. Ushbu nomlar asarda shaxs, ijtimoiy qatlam yoki axloqiy fazilatni umumlashtiruvchi timsol sifatida namoyon bo‘ladi.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida individual ismli qahramonlardan ko‘ra, timsoliy va tipiklashtirilgan pretsedent nomlardan keng foydalanadi. Muqbil, Mudbir, Farhod, Majnun va Layli kabi nomlar asarda muayyan axloqiy g‘oyani ifodalovchi badiiy to‘qima obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Asarning tavoze va odob haqidagi faslida Muqbil va Mudbir haqida hikoyat keltiriladi va hikoyatda ular shunday tasvirlangan: *“G‘ofil jahl yuzidin xudpisand, ogoh tavozu’ va adab zavaridin arjumand. Birining ismi Mudbiri jahongard va birining oti Muqbili javonmard”*. Ya‘ni g‘ofil johilligi tufayli kekkaygan, ogoh esa odob va tavoze tufayli ulurvor edi. Ulardan birining oti jahongashta Mudbir va ikkinchisining oti yigitlar mardi Muqbil edi.

Bu shaxs nomlari Navoiy ijodidagi sayyor obrazlardan biri bo‘lib, akademik Botirxon Valixojayevning “Mumtoz siymolar” monografiyasida keltirilishicha, Alisher Navoiy ijodiga mansub uch asarda “Muqbil va Mudbir” obrazlari haqidagi hikoyat uchraydi [5, 132]. Bular: “Hayrat ul-abror” dostoni 7-maqolati Qanoat bobida, “Saba’i sayyor”da oltinchi musofir tilidan aytilgan hikoyat hamda “Lison ut-tayr” dostonining 53-bobida keltirilgan hikoyatlardir.

Qizig‘i shundaki, “Mahbub ul-qulub” asaridagi ushbu obrazlar e‘tibordan chetda qolgan. Umuman, Navoiy ijodidagi Muqbil va Mudbir haqidagi voqealar mazmun jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lib, ularda Muqbil kamtarin, qanoatli, rostgo‘y inson sifatida, Mudbir esa kekkaygan, besabr va riyokor shaxs sifatida gavdalanadi.

Asarda Farhod obrazi ham mavjud. Bu obraz Alisher Navoiyning asarlarida komillik timsoli sifatida gavdalanadi. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostonida Farhod obrazini komil inson sifatida tasvirlagan. Tadqiqot obyekti bo‘lgan “Mahbub ul-qulub” asarida ham Farhod obrazi qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Unda quyidagicha keltiriladi: *Ishq ko‘histoni*

bedodining noshodlaridin biri Farhoddur va sahroyi junun zabunlaridin biri Majnundur. [1, 65]

Bu misrada Majnun obrazi ham keltirilgan. Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida Majnun obrazi ilk bor qo‘llanilgan. Bu obraz insonlar tafakkurida ilohiy ishq timsoli sifatida mavjud. Yuqorida keltirilgan misolda ham ikki dostonidagi voqealarga ishora qilib ketilgan. Farhod va Majnun obrazlari hozirgi zamonaviy asarlarda qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Masalan: Erkin Vohidovning “Sevgi otashi” she‘rida quyidagi misralarda qo‘llanilgan:

*Ishq-u hajr olamga meros,
Bo‘yla merosdur azal
Bizga Farhoddan fidolik,
Bizga Majnundan junun.*[8, 343]

Bu misralarda Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan qahramonlarga ishora qilinmoqda. Masalan: *Bizga Farhoddan fidolik misrasida* adib Farhodning Shirinning yurtiga borib, suv chiqarishga qiyinchilikga uchragan xalqni ko‘rib, ularga yordam bergani va tog‘- u toshlardan suv chiqarganini nazarda tutgan. Ya‘ni bunday fidoliklar bizga ajdodlarimizdan meros ekanligini ta‘kidlamoqda shoir.

XULOSALAR.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida qo‘llangan pretsedent nomlar nafaqat badiiy bezak vazifasini bajaradi, balki muallifning axloqiy-falsafiy qarashlari, diniy e‘tiqodi hamda davr ijtimoiy-madaniy muhitini yoritishda muhim lingvomadaniy birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda keltirilgan shaxs nomlari orqali Navoiy inson komilligi, adolat, sabr, tavoze, saxovat kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ‘ib etadi hamda o‘quvchini chuqur mushohadaga undaydi. Tadqiqot jarayonida “Mahbub ul-qulub” asaridagi antroponimlar Qur‘oni Karimda uchraydigan shaxs nomlari, diniy ulamolar, afsonaviy qahramonlar, shoir va yozuvchilar, hukmdorlar hamda badiiy to‘qima nomlar kabi mavzuviy guruhlariga ajratilib tahlil qilindi. Ushbu tasnif antroponimlarning funksional va semantik imkoniyatlarini aniqlashga, ularning asar g‘oyaviy-badiiy tuzilishidagi o‘rnini belgilashga xizmat qildi.

Aniq misollar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Navoiy tarixiy va diniy shaxslar nomlarini qiyos, ramz va ibrat vositasi sifatida qo‘llagan. Afsonaviy qahramonlar orqali esa axloqiy mezonlar umumlashtirilgan holda berilib, asarning ta’sirchanligi kuchaytirilgan. Shoir va yozuvchilar nomlarini keltirish orqali muallif o‘zini adabiy an‘analarning davomchisi sifatida namoyon etgan bo‘lsa, hukmdorlar obrazlari vositasida adolatli boshqaruv g‘oyasini ilgari surgan. Shuningdek, badiiy to‘qima antroponimlar – Muqbil va Mudbir singari nomlar orqali Navoiy axloqiy fazilat va illatlarni tipiklashtirgan

holda ifodalab, nomlarning semantik yukini kengaytirgan. Bu holat asarning didaktik mohiyatini yanada kuchaytirib, antroponimlarning faqat nominativ emas, balki g‘oyaviy-estetik vazifa ham bajarishini ko‘rsatadi. Umuman olganda, “Mahbub ul-qulub” asaridagi antroponimlar tizimi Alisher Navoiyning yuksak badiiy tafakkuri, chuqur falsafiy qarashlari va boy lingvomadaniy merosini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 172 b.
2. Hamid Olimjon. Oygul bilan Baxtiyor: ertak-dostonlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 112 b.
3. Oripov A. Sohibqiron. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 224 b.
4. Hamid Olimjon. Oygul bilan Baxtiyor: ertak-dostonlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 30 b.
5. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. – Тошкент: 2002. 132-бет.
6. Erkin Vohidov. Kuz sahovati.– Toshkent: Sharq, 2016.– 11b.
7. Гунко Ю. А. Особенности функционирования претсидентных высказываний в разговорной речи носителей руссково языка . Дисс... канд. Филол. Наук – Санкт-Петербург, 2002
8. ГудковД.Б Прецедентные феномени в языковом сознание межкультурной коммуникатсие: Дисс...д-ра филол.наук.–М, 1999
- 9.МасловаВ.А Лингвокультурология.– М.: Academia, 2001.– С.53.